

Fuqarolik ishtirokidagi "Tashabbusli byudjet" turlari va uni O'zbekistonda qo'llash dolzarbligi

Inomjon Jumaniyazov
Munira Qayumova
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Yurtimizda so'nggi yillarda aholi turmush darajasini yaxshilash va fuqarolarni qiynab kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammo hamda kamchiliklarni hal etish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Joylarda infratuzilmalarni yaxshilash hamda tizimli muammoga aylanib ulgurgan yo'l ta'mirlash, ichimlik suvi ta'minoti, tabiiy gaz hamda ta'lim muassasalari binolarini ta'mirlash singari muammolarni hal etish pirovard maqsadlardan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tashabbusli byudjet, davlat, xususiy sektor, byudjetlashtirish jarayonlari, ochiq byudjet portali, loyihalar, byudjet mablag'lari

Types of "Initiative budget" with citizen participation and the relevance of its application in Uzbekistan

Inomjon Jumaniyazov
Munira Kayumova
Tashkent Financial Institute

Abstract: A number of works have been carried out in our country in recent years in order to improve the standard of living of the population and solve the socio-economic problem and shortcomings that have plagued citizens. The ultimate goals are to improve infrastructure in places and solve problems such as road repair, drinking water supply, natural gas and repair of buildings of educational institutions, which have become a systemic problem.

Keywords: initiative budget, public, private sector, budgeting processes, Open Budget portal, projects, budget funds

Kirish

Jahon mamlakatlarida fuqarolarning byudjet jarayonida ishtirok etishi va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, bu orqali davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Fuqarolarning ma'lum shakldagi byudjet qarorini qabul

qilish jarayonida ishtirok etishi demokratik boshqaruv shakllariga ega ko'plab mamlakatlarda deyarli XX asrning o'rtalaridan buyon amalda bo'lib kelmoqda.

Jahon davlat moliyasini isloh etish sharoitida tashabbusli byudjetlashtirish orqali moliyaviy resurslardan samarali foydalanish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanishda davlat va xususiy sektor boshqaruvini ajratishning aniqligini ta'minlash, byudjet mablag'larini ta'minlashda vakolatli organlar rolini kuchaytirish, aholi ishtirokini kengaytirish, fiskal siyosat maqsadlariga erishishni nazorat qilish, moliyaviy axborot va risklarni, ichki va tashqi nazoratlarning o'zaro ta'sirini aniqlash, moliyaviy ma'lumotlarning ochiqligi ta'minlanishida real vaqt rejimiga amal qilinishi va amalga oshirilishi, moliyaviy siyosatning ochiqligini ta'minlash me'yorlarini takomillashtirish bu boradigi vazifalarning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-4947-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'rida"gi farmoni, 2018-yil 22-avgustdagi PQ-3917-son "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi va boshqa shunga o'xshash qarorlarda belgilangan vazifalar tashabbusli byudjet jarayonini tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Partisipator byudjetlashtirish mexanizmini tarixi uzoq o'tmishga borib taqalmasligi va bu loyiha yaqin 30-yillik tajribaga asoslanganligini e'tiborga olgan holda fuqarolarning byudjet mablag'lari sarflanishida tutgan o'rnini va uning dolzarbligi bo'yicha nazariy va amaliy jihatlarini xorijiy iqtisodchi olimlar N.Dias¹, G.Xachatryan², T.Vinogradova, A.Staxnyuk, va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

O'zbekistonda bu masala B.Nurmuxamedova³, O.G'aybullayev⁴, A.Vaxobov, A.Islamkulov, T.Teshaboyev va boshqalarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotning metodologik usullari. Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, iqtisodiy tahlil va boshqa usullarni o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda yurtimizda "Tashabbusli byudjet" jarayonlari doirasida fuqarolar tomonidan bildirilgan ijtimoiy takliflarni ovoz berish yo'li orqali aniqlagan holda tegishi g'olib taklifni moliyalashtirish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari ham fuqarolarning ijtimoiy muammolarini ijobiy hal etish imkoniyatlarini taqdim etuvchi interaktiv usullardan biri hisoblanadi, mazkur mexanizm byudjet mablag'larini sarflanishida fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirok

¹ Dias N. et al 2019. Participatory budgeting world ATLAS 2019.

² Хачатрян Г.Н,Т.Виноградова. Программа «Прозрачный бюджет» в России.2019.

³ Nurmuhamedova B.I. davlat byudjeti. Darslik.-T.: Iqtisod-moliya,2018.

⁴ G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma.-T.:Baktria press,2016.

etishi, shu bilan birga byudjet mablag'larining samarali sarflanishini kuzatib borish imkoniyatini beradi.

Fuqarolarning byudjet jarayonida ishtirok etishi shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, bu orqali davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korrupsiya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

2019-yildan boshlab esa jamoatchilik ixtiyoriga "Fuqarolar uchun byudjet" axborot nashri taqdim etib kelinmoqda. Davlat byudjeti hamda davlat maqsadli jamg'armalarining daromad va xarajatlari ijrosi singari ma'lumotlarni o'zida mujassamlagan "Ochiq byudjet" axborot portal ishga tushirildi.

Tashabbusli byudjetlashtirish-fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflarga asosan, ularni tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tegishli takliflarga yo'naltirish, ya'ni yangicha interfaol moliyalashtirish amaliyotidir.

Yana bir muhim tafsilotga e'tibor qaratilsa, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini "Fuqarolar byudjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarbmumammolarni hal etishda sarflashni tashkil qilish belgilangan⁵.

Mazkur jarayonlar bir qancha mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

- "Ochiq byudjet" axborot portaliga SMS xizmati orqali ro'yxatdan oshiriladi;
- SMS xizmat orqali ro'yxatdan o'tgan fuqaro taklif qoldiradi;
- SMS xizmatidan foydalangan holda takliflarga ovozlari yig'iladi.

Mazkur sohada raqamli texnologiyalarning keng jalb etilganligi fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va hamma jarayonlar ochiq va shaffof tarzda o'tkazilishini ta'minlaydi.

Tashabbusli byudjet jarayonlarida, avvalo, 18 yoshdan oshgan tashabbuskor fuqarolar "Ochiq byudjet" axborot portaliga o'z takliflarini kiritadilar, bu takliflar moderatsiya jarayonidan saralanib o'tadi va ommaviy ovoz berishga qo'yiladi, eng ko'p ovoz olgan takliflar yuqoridan quyiga moliyalashtiriladi.

Xalqaro tajribada tashabbusli byudjet "Participate" byudjetlashtirish nomi bilan ma'lum. Participate so'zi ingliz tilida-qatnashish, ishtirok etish degan ma'nolarni anglatadi.

Tashabbusli byudjet tizimini yurtimizda tashkil etishda bir qator rivojlangan davlatlar, xususan, Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo'shma Shatatlari, Braziliya va Ukraina Respublikasining tajribasi to'liq o'rganib chiqildi, o'rganishlar natijasida har

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son

bir davlatda mazkur tizimni amalga oshirish mexanizmini keng jamoatchilikka tatbiq qilinishiga erishildi.

Tashabbusli byudjet jarayonlaridan kutilayotgan asosiy maqsad:

1. Aholining bevosita yillar davomida an'anaviy byudjet tizimida qamrab olinmagan muammolarini hal etish.

2. Aholining byudjet savodxonligini oshirish va byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishiga ko'mak berish.

3. Fuqarolik jamiyatining hamjihatlik bilan shakllanishiga erishish.

4. E'tibordan chetdan qolayotgan ayrim ijtimoiy masalalarni fuqarolik jamiyati bilan birgalikda hal etish.

5. Mahalliy hokimiyat va fuqarolar tomonidan tegishli hududda muhim ahamiyatga ega sohalar uchun birgalikda qarorlar qabul qilish.

6. Fuqarolarni hududda amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishlariga mos ravishda sarflanayotgan mablag'lar to'g'risida xabardor qilish.

Keng jamoatchilik, ya'ni fuqarolar davlat byudjetining ma'lum qismini taqsimlashda bevosita qatnashuvchi jarayon sifatida partisipator byudjetlashtirishni hukumat bilan fuqarolar o'rtasida munosabatlarning yangicha zamonaviy yondashuvi, byudjet jarayoniga jamoatchilikni jalb etishning ta'sirchan mexanizmi deyish mumkin, bunday amaliyot tegishli boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilishida asos sifatida aniq prinsiplar, mexanizm va tartiblar qo'llaniladi. Ularning puxta va mukammal ishlab chiqilganligi jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.


Unga ko'ra aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahallada bo'yicha bitta loyiha paketi shaklida ovozga qo'yiladi. Ma'lumot uchun, loyihalar paketi uchun ajratiladigan mablag'lar cheklangan miqdorini 8 milliard so'm etib belgilash, dasturlarni moliyalashtirish uchun har-yili davlat byudjetidan kamida 4 trillion so'm yo'nalish nazarda tutilmoqda⁶.

Bugungi globallashuv davrida byudjet iqtisodiyotida makroiqtisodiy boshqaruvning muhim vositasi bo'lib, uning samaradorligi hukumatning ijtimoiy maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Byudjet shuningdek aholining hayotiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va iqtisodiy siyosat va ustuvorliklarini amalga oshirish uchun vositadir.

Tashabbusli byudjet dasturi bo'yicha 2023-yil 6-fevraldan 2023-yil 7-aprelgacha bo'lgan muddatda 2882.9 mlrd so'm miqdorda "Tashabbusli byudjet"ga mablag'lar ajratildi. Shulardan 55970 tasi kelib tushgan tashabbuslar soni, 33680 tasi tasdiqlangan tashabbuslar, 22290 tasi rad etilgan tashabbuslar tashkil etadi. Jami 16129764 ta berilgan ovozlar sonini ko'rish mumkin⁷.

⁶ <https://openbudget.uz/counters>

⁷ <https://openbudget.uz/counters>



1-rasm. Sohalar kesimida g'olib bo'lgan loyihalar⁸

Ushbu rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 5366 ta g'olib bo'lgan loyihadan eng ko'pini umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bo'yicha loyiha g'olib deb topilgan. Bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning bir qismi sifatida aytish mumkinki maktablarni ta'mirlash va jihozlash bugungi davr talabi bo'lmoqda. Ikkinchi o'rinda ichki yo'llarni ta'mirlash loyihalari g'olib bo'lgan.

“Obod qishloq” va “Obod maxalla dasturlari doirasida jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali keying yil uchun tadbirlarni shakllantirish va ularga ovoz berish orqali aniqlanadi.

Tashabbusli byudjet jarayonini moliyalashtirish miqyosi ortadi. Keying yildan boshlab har bir tuman va shaxarda 6mlrd so'mdan kam bo'lmagan mablag' ajratilishi hisobiga kelgusi yilda tashabbusli byudjet jarayonlari uchun 2 trln so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilishi kutilmoqda.

Xulosa. Tashabbusli byudjet mexanizmlarini amalga oshirishning eng muhim natijasi nafaqat ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalarini hal qilish, balki aholi yashash manzillarida ijtimoiy va inson kapitalini rivojlantirishdir. Byudjet jarayonida bevosita ishtirok etish orqali fuqarolar ijtimoiy o'zgarishlarning ishtirokchilariga aylanadilar.

Bugungi globalashuv davrida byudjet iqtisodiyotida makroiqtisodiy boshqaruvning muhim vositasi bo'lib, uning samaradorligi hukumatning ijtimoiy maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Byudjet shuningdek aholining hayotiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va iqtisodiy siyosat va ustuvorliklarni amalga oshirish uchun vositadir.

Mamlakatimizda 2019-yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan Tashabbusli byudjet jarayonlari mazkur sohaning insonlar hayotidagi o'rni qanchalik dolzarbligi va ushbu jarayon jamiyatimizdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim dastak sifatida xizmat qilishini yana bir bor isbotlab berdi. Bu esa o'z navbatida mazkur jarayonni yanada takomillashtirish, joriy yilda kuzatilgan kamchiliklarni kelgusida

⁸ <https://openbudget.uz/counters>

takrorlanmaslik hamda jarayon bilan bog'liq muammolarni tizimli ravishda hal etishda xorijiy ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dias N. et al 2019. Participatory budgeting world ATLAS 2019.
2. Хачатрян Г.Н,Т.Виноградова. Программа «Прозрачный бюджет» в России.2019.
3. Nurmuhamedova B.I. davlat byudjeti. Darslik.-T.: Iqtisod-moliya,2018.
4. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma.-T.:Baktria press,2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi,; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son
6. Jumaniyozov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 109-116.
7. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. *International Journal of Management Science and Business Administration*, 4(2), 84-88.
8. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(5), 1.
9. Jumaniyozov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(2), 1.
10. Jumaniyozov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(05), 30-37.
11. Жуманиязов, И. Т. (2016). Основные задачи Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан. *Наука, образование и культура*, (7 (10)), 27-28.
12. Жуманиязов, И. Т. (2016). Направления использования средств Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан. *Economics*, (7 (16)), 28-29.
13. Jumaniyozov, I. T. (2022). O'zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. *Science and Education*, 3(5), 1637-1645.
14. Inomjon Turaevich Jumaniyozov, & Bexruz Hazratov (2022). Foreign experience in the development of special economic zones in Uzbekistan. *Science and Education*, 3 (5), 1628-1636.

15. Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. *Science and Education*, 3 (5), 1646-1654.
16. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund's expenditure on GDP growth. *Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna*.
17. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. *Science and Education*, 4(1), 1033–1043. Retrieved from <https://opencscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
18. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O'RNI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 1187-1191.
19. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партисипатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. *Science and Education*, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://opencscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
20. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. *Science and Education*, 4(2), 1509–1516. Retrieved from <https://opencscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
21. Jumaniyazov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. *Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.–Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229)*.
22. Jumaniyazov, I. T. The significance of Uzbekistan reconstruction and development fund's financial capital on economic growth of Uzbekistan. *International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN, 2348, 0386*.
23. Jumaniyazov, I., & Mahmudov, M. (2022). Experience of foreign countries in attracting foreign investment. *Asian Journal of Research in Banking and Finance*, 12(5), 32-37.
24. Jumaniyozov, I. T., & Abdumannobov, A. M. (2020). MANAGING PUBLIC DEBT. In *Ключевые проблемы современной науки* (pp. 3-7).
25. Jumaniyozov, I. T., & Bakhodirkhujayev A.F. (2020). ISSUES AND CHALLENGES FOR THE IMPLEMENTATION OF MACROPRUDENTIAL POLICY IN UZBEKISTAN. In *Ключевые проблемы современной науки* (pp. 8-11).
26. <https://openbudget.uz/counters>